

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NURMURATOV ANVAR YAXSHIBAYEVICH

MASOFAVIY TA’LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical sciences**

Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich

Masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi 3

Нурмуратов Анвар Яхшибаевич

Методика обучения английскому языку при дистанционном образовании ... 29

Nurmuratov Anvar Yakhshibaevich

Methodology of Teaching English Language in Distance Education..... 57

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NURMURATOV ANVAR YAXSHIBAYEVICH

MASOFAVIY TA’LIMDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Ped3606 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kushiyeva Nodira Xabibjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Masharipova Feruza Jumanazarovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Phd.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu@gmail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «_____» _____ kunida tarqatildi.
(2024-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

L.T.Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

A.B.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

K.Sh.Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahonda sodir bo'layotgan turfa o'zgarishlar hamda rivojlanishlar bugungi kun chet tillarini o'qitish sohasi oldiga ta'limning turli ko'rinishlarini ularga xos texnologik hamda metodologik tarkibiy mexanizmlari bilan birgalikda ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Shu bilan bir qatorda jahon ahli duch kelayotgan epidemiologik falokatlar, siyosiy inqirozlar hamda mojarolar ham bugungi kun ilm-fani oldiga axborot-kommunikatsion va kompyuter texnologiyalari sohasidagi yutuqlardan foydalangan holda ta'limning noan'anaviy, gibrid ko'rinishlarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Bugungi kun talabi til o'rganuvchining geografik joylashuv nuqtasini u o'rganayotdan til mansub bo'lgan mamlakatga ko'chmagan holda to'laqonli madaniy hamda lingvistik jihatlarni hisobga olgan holatda masofadan ishlash, masofaviy ta'lim orqali olib borish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Bu esa jahon ilm-fani bilan hamohang tarzda rivojlanish, ular bilan tajriba almashinishda dunyo aholisi uchun asosiy muloqot tiliga aylangan ingliz tilini qulay, tez va samarali tarzda o'zlashtirib, uni amaliyotda qo'llash vazifasini dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Dunyo miqyosida bir yarim milliarddan ortiq odam erkin muloqot qila oladigan, jahonning yuzga yaqin mamlakatida asosiy o'rganilayotgan chet tili sifatida tahsil beriladigan ingliz tilini o'rgatish va o'rganish bo'yicha bir qator metod va strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib ular hamon takomillashtirilmoqda. Januniy Koreadagi KNOU universiteti (Korea National Open University), Niderlandiyadagi Euler-Francker memorial universiteti (The Euler-Francker Memorial University) hamda Turkiyadagi NETKENT universitet (Mediterranean research and science university)lari masofaviy ta'lim orqali, xususan ingliz tilini masofaviy tarzda o'qitishga alohida ahamiyat berishmoqda. Shu o'rinda, ilm-fanning bugungi kun yutuqlari hisobiga erishilayotgan axborot texnologiyalari sohasidagi muvaffaqiyatli kashfiyot va loyihalar hayotning turli jabhalarida faol qo'llanilgani singari ingliz tilini o'qitishda ham uni mahalliy xalqning o'z ona tiliga qiyosiy tarzda masofadan o'rganishning eng samarali metod va pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish ustida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning o'ttiz uch yilligini nishonlash arafasida turgan, Renessans uchun tamal toshi qo'yayotgan, mo'ljaldagi yuksak maqsadlar sari ildam qadam tashlayotgan yangi O'zbekistonda intellektual salohiyatni oshirishning asosiy omili va manbasi bo'lgan ilm fan taraqqiyoti uchun qulay muhit yaratilgan. Shuningdek, "Agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa— butun jamiyatimiz o'zgaradi. Shu bois biz uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz"¹. Ta'lim tizimining rivoji bevosita ilm–fan taraqqiyoti bilan

¹Sh. Mirziyoyev. "Vatanimiz mustaqilligi — biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi". <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-o'zbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-30-yillik-bayramiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi> (Murojaat sanasi: 14.05.2023)

bog‘liq. Mamlakatimiz rivoji va taraqqiyotining asosi, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, chet tillarda so‘zlashish imkoniga ega, o‘z sohasi bo‘yicha xorijiy hamkasblari bilan erkin tajriba almasha oladigan tarzda kamol toptirish davlatimiz siyosatining eng asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada ingliz tilini an‘anaviy metodika bilan bir qatorda masofaviy ta‘limda o‘qitishning nazariy hamda ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ingliz tilini masofadan o‘qitish yuzasidan B.Tomlinson, C.Votaker, S.Panyasi, J.Marin, A.Monkada, C.Chapelle, J.Jeymson, C.Dafti, M.Long, V.Kayzalusa, G.Sanchez, A.Dereguzu, E.Ekmekchi, Y.Samu, T.Dolidze, H.Ismail, C.Gunavardena, R.Zatl, R.Layli, M.Nashir, Y.Jukova, N.Kameneva, L.Zenina va boshqa ko‘plab pedagog-olimlar² va

² Tomlinson B., Whittaker C. Blended learning in English language teaching: Course Design and Implementation. – London, British Council, 2013. – 258 p.; Panyasi S. Teaching English literature to English as a Second Language Learners. – Sdney, 2015. – 357 p.; Marín J., Moncada A. Teaching Reading Comprehension in English in a Distance Web-Based Course: New Roles for Teachers// Profile Vol. 12, No. 2. – Bogotá, Colombia, 2010. – P. 69-85.; Chapelle C.A., Jamieson J. Computer assisted language learning and distance Learning; Doughty C., Long M. Optimal psycholinguistic environments for distance foreign language learning// Paper presented at the Conference on Less Commonly Taught Languages sponsored by CLEAR, Virginia, Michigan State University, 2002.; Caizaluisa V., Sánchez G. The use of the assessment portfolio to promote the 21st Century skills (collaboration, communication and critical thinking) focused on writing in the students of second year of bachillerato degree at “Ecológico trilingüe gonzalo ruales benalcázar” high school during the school year 2013-2014// Research Project. Sangolqui, 2014. Deregözü A. The Use of Listening Comprehension Strategies in Distance Language Education//

tadqiqotchilar tomonidan muammoga bag'ishlangan qator nazariy-metodologik va eksperimental tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Markaziy Osiyolik olimlardan D.Tlepbergen, A.Akzikitova, A.Zabrodsкая, D.Akizhanova, M.Tusupbekova, A.Bezborodova, S.Radjabzada, V.Sartor va boshqa tadqiqotchilar³ mintaqa sharoitida ingliz tilini o'qitishning innovatsion metodlari va uni masofaviy tarzda olib borish imkoniyati xususida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbekistonlik olimlardan A.Abduqodirov, J.Jalolov, D.Sidiqova, A.Pardayev, M.Fayziyeva, D.Sultonova, I.Tuxtasinov, L.Axmedova, K.Muradkasimova, Sh.Ashurov, D.Tagayeva, P.Omanov, S.Chimpo'latova, D.O'rinboyeva, M.Hakimov, F.Kaipbergenova, D.Kurbanbayev, A.Kaipbergenov, Sh.Sultonova va boshqa pedagog-olimlar va tadqiqotchilar⁴ o'z ilmiy izlanishlari doirasida xorijiy tillarni masofaviy tarzda o'qitishning afzalliklari, innovatsion texnologiyalarning til o'rganishdagi samaradorligi xususida ilmiy qarashlarini bayon qilishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet

English Language Teaching. Vol. 14, No.10. Canadian Center of Science and Education, 2021. – P. 62-69.; Ekmekçi E. Distance-education in foreign language teaching: evaluations from the perspectives of freshman students// Science Direct, Procedia - Social and Behavioral Sciences (176). – 2015. – P. 390-397.; Samu Y. ve d. Distance Education in Turkey: Past - Present – Future// Uluslararası Yükseköretim Kongresi: Yeni Yönelimler ve Sorunlar (UYK-2011), 27-29. Istanbul, 2011. – S. 1326.; Dolidze T. Effects of distance learning on English language learning// Procedia - Social and Behavioral Sciences. – (70), 2013. – P. 1438 – 1441; Ismail H. Impact of Distance Learning on the English Language Learning Process// Journal of Curriculum and Teaching Vol. 11, No. 7, Sepcial Issue, 2022. – P. 37-47.; Gunawardena C., Zittle R. An examination of teaching and learning processes in distance education and implications for designing instruction// In M. Beaudoin (Ed.), Distance Education Symposium 3., 1996. – P. 51-63.; Laili R., Nashir M. The Use of Zoom Meeting for Distance Learning in Teaching English to Nursing Students during Covid-19 Pandemic// UHAMKA International Conference on ELT and CALL (UICELL). – Jakarta, 2020. – P. 235-244; Жукова Е. Аспекты преподавания английского языка в сфере юриспруденции в условиях дистанционного обучения// Актуальные вопросы теории и практики обучения ино-странному языку для специальных целей: Материалы межвузовского круглого стола, 26 июня 2020 года. – Оренбург: МГЮА, 2020. – С. 24-28.; Kameneva N., Zenina L. Distance learning for developing knowledge and skills in english language teaching// Экономика, Статистика и Информатика, №5, 2013. – P. 3-6.

³ Tlepbergen D. and others. Language-in-Education Policy of Kazakhstan: Post-Pandemic Technology Enhances Language Learning// Education Science, (12) 311. – 2022. – P. 3-12.; Akizhanova D. and others. Kazakhstan's Practices of Using Digital Tools in Teaching English Online// Innovation in language learning, International conference. – 2022. – P. 54-59.; Bezborodova A., Radjabzade S. English in higher education in the Kyrgyz Republic, Tajikistan, and Uzbekistan// World Englishes, (41). – 2022. – P. 72–91.; Sartor V. Teaching English inTurkmenistan// English Today, Vol. 26, Iss. 04. – 2010. – P. 29-36.

⁴ АбдуқодировА., Пардаев А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. – Тошкент, “Фан”, 2009. – Б. 28-33.; Файзиёва М. Ўқув жараёнига мослашувчи Web тизимни яратишнинг илмий-методик асослари/ Монография. – Тошкент, «Sano-standart», 2016. – Б. 48-50.; Sultonova D. Analysis of useful methods of distance learning// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 1, Iss. 8. 2021. – P. 236-240.; Tagaeva D. Modern Methods of Organizing Distance Education// International Journal of Academic and Applied Research (IJAAAR) Vol. 4 Iss. 10. – 2020. – P. 64-65.; Оманов П. Инглиз тилини ўқитишда талабалар ижтимоий-маданий компетенциясини аутентик видеоматериаллар воситасида ривожлантириш/ Дисс. пед. ф.б. PhD – Тошкент, 2021. – 213 б.; Chimpo'latova S. Chet tillarini masofaviy o'qitishda interfaollik muammosi// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 1, Iss. 7. – 2021. – P. 164-170.; O'rinboyeva D. Xorijiy tillarni o'qitishda onlayn ta'limning yutuq va muammolari// Academic Research in Educational Sciences. Vol. 2. CSPI CONFERENCE 2. – 2021. – P. 394-398.; Khakimov M. Distance study of foreign languages: modern trends and development prospects// Жамият ва инновациялар, Special Issue. 8. – 2021. – В. 252-257.; Kaipbergenova F. and others. Using an online platform for learning english in higher educational institutions of the Republic of Karakalpakstan// PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 18(4). – 2021. – P. 730-736; Sultonova Sh. The role of computer technologies in teaching English language// Вестник науки и образования 7-2 (85). «Олимп», 2020. – С. 89-91.

tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Filologik oliy o‘quv yurtlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

masofaviy ta’limni takomillashtirish jarayonida uning nazariy ob’yekti hamda mazkur ob’jekt ilmiy mohiyatini belgilab berish va mazkur natijalarni maxsus elektron platformada aks ettirish;

ingliz tilini o‘qitishda mavjud metodlar va texnologiyalarga asoslangan holda masofaviy ta’limdan alohida maqsadli foydalanish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan til bilish darajalariga qarab til ko‘nikmalarini o‘qitishga yo‘naltirilgan UzEDL elektron platformasini yaratish va uning yordamida hamda undagi virtual kutubxona orqali til o‘rganishdagi samaradorlikni aniqlash;

til faoliyatini baholash mezonlarining komponentlarini UzEDL elektron platformasini orqali takomillashtirish;

UzEDL milliy platformasi faoliyati tadqiqi doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, olingan natija va xulosalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilini UzEDL milliy platformasi orqali OTM talabalari misolida masofaviy tarzda o‘qitish amaliyoti olingan.

Tadqiqotning predmetini UzEDL platformasi vositasida ingliz tilini masofaviy tarzda o‘qitish amaliyotida qo‘llanilgan kompyuter-innovatsion, pedagogik texnologiyalar, masofadan o‘qitish bo‘yicha strategiyalar va metodlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qo‘yilgan ilmiy mavzuni adekvat holatda o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, chog‘ishtirma tahlil), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma’lumotlarga statistik ishlov berish), natijalarni grafik tasvirlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini bilish darajasini baholovchi ikki bosqichli gorizontal (boshlang‘ich va reflektiv) komponentlar til faoliyatini baholash mezonlariga integratsiya qilish asosida o‘quv didaktik ta’minoti takomillashtirilgan;

o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda “Previewing”, “Predicting”, “Skimming and scanning”, “Guessing”, “Paraphrasing” strategiyalaridan foydalanib, o‘qishga yondashish texnikasini “Nearpod” va “Pear Deck” kabi maxsus dasturlarda video va audiomatn tarzda o‘rganish imkoniyatining yaratilishi orqali asinxron o‘qish va sinxron mashg‘ulotlar o‘tkazish jarayoni takomillashtirilgan;

til ko‘nikmalarini baholash test tizimlariga masofaviy-vizual tarzda tayyorlanishning zamon talablariga mos platformalaridan, UzEDL, til sinovi(CEFR va IELTS imtihoniga tayyorlanishga ixtisoslashtirilgan)ga masofaviy tarzda kompleks tayyorlaydigan platformaning zarurligi va mavjud imkoniyatlari,

bugungi kundagi mavjud masofaviy ta'lim (MT) platformalaridan kibernetika shartlariga to'la javob beradigan va milliylik bilan integratsiya qilingan platforma ekanligi bilan farq qilishi ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan dalillangan;

UzEDLda "yozish" ko'nikmasini takomillashtirishda til o'rganuvchilarning, imloviy, grammatik, stilistik va morfologik xatolarini o'z vaqtida aniqlashlari va tuzatishlari uchun "Grammarly" dasturi, ko'chirmakashlikni tekshirish uchun "Plagiarism checker" dasturi, inshodagi so'zlarning sonini aniqlash uchun "Wordcounter" dasturi, hamda ravon o'qilishini ta'minlovchi "Readability Test Tool" dasturining taqdim etilishi talabalarda "self-assessment (o'z-o'zini baholash)" va "self-correction (o'z-o'zini tuzatish)" ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilishi lingvopsixologik jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

masofaviy ta'lim shakli ko'rinishlari tasniflanishi hamda tahlili qilinishi vositasida unga xos dolzarb xususiyatlar aniqlangan;

ingliz tilini masofaviy tarzda o'qitish yuzasidan xorij va mahalliy tajriba natijalari tahlil qilinib, O'zbekistonda masofaviy ta'limga o'tish imkoniyatlari va ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab hisobga olingani holda CEFR tizimiga asoslangan imtihonda yuqori natijaga erishish uchun barcha vositalar jamlangan UzEDL milliy ta'lim platformasi ishlab chiqilgan;

til o'rganuvchilarga qulaylik yaratish uchun UzEDL milliy ta'lim platformasi doirasida ingliz tilidan masofaviy dars jarayonlari tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg'unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligini, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini UzEDL platformasi yordamida masofaviy tarzda o'qitishning milliy tajribasini yaratish va undan foydalanishning pedagogik, didaktik, psixologik omillari amaliy va nazariy kompetensiyalar bo'yicha tahlil etilganligi, talabalarda lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarini kommunikativ yondashuv doirasida rivojlantirish yo'llari va mustaqil ta'limni rivojlantirish asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning metodik ta'minoti takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yaratilgan platforma doirasida xalqaro standart mezonlari va milliy tajriba asosida ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda tan olingan masofaviy ta'lim strategiyalari va metodlari tizimidan foydalanishning usul va uslublari, mashqlar tizimi, metodik va didaktik ta'minoti hamda tadqiqot materiallaridan o'qituvchilar malakasini oshirish kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarida va shu soha bo'yicha yangi

platforma, ilova hamda o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Masofaviy ta’limda ingliz tilini o’qitish metodikasi” nomli tadqiqot ishi yuzasidan olingan ilmiy natijalar:

masofaviy ta’lim shaklini takomillashtirish jarayonida xorijiy til ko’nikmalarini o’zlashtirishga yo’naltirilgan platforma yaratilishi hamda muayyan til o’qitish sharoitida masofaviy tarzda kompleks tayyorlaydigan, masofaviy ta’limning o’ziga xos xususiyatlarini ta’minlaydigan vositalardan biri sifatida mazkur platformaning imkoniyatlari va zaruriyati ochib berilishiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2019–2023-yillarda bajarilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” mavzusidagi xalqaro loyihada samarali foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-iyundagi 1807/30.0201-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida ishlab chiqilgan milliy platformani takomillashtirish va bu platformaning amaliy natijasi sifatida til ko’nikmalarini rivojlantirishga erishilgan;

masofaviy ta’lim platformasining maxsus kurslarni o’zida jamlagan masofaviy ta’lim platformalari (MKO’JMTP), muayyan ta’lim muassasasi bazasidagi masofaviy ta’lim platformalari (MTMBMTP), yordamchi masofaviy ta’lim platformalari (YMTP) kabi turlari aniqlangani, MDH va rivojlangan mamlakatlarda ushbu platformalardan foydalanish yo’riqnomasi bo’yicha ma’lumotlar nazariy asoslanganiga oid xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381-raqamli “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 22-iyundagi 03/1835-son ma’lumotnomasi). Natijada UzEDL platformasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o’rinli foydalangan holda ma’lumotlar kiritish hamda ta’lim jarayonida qo’llashda undan nafaqat til o’rganuvchilar, balki til o’rgatuvchi kurslarning o’qituvchilari uchun ham qulay foydalanish imkoniyati yaratilgan;

UzEDL platformasi doirasidagi virtual kutubxonaning shakllantirilganligi, bu kutubxona til sohasi va muayyan maqsad (undagi barcha vositalar – kitoblar, lug’atlar, mashqlar jamlanmasi, audio va videomateriallar – CEFR tizimiga asoslangan imtihondan yuqori natijaga erishish uchun yo’naltirilgan) uchun shu sohadagi mutaxassislar tomonidan intensiv tarzda (o’qituvchilar o’z pedagogik tajribalari doirasida muayyan samara bergan adabiyotlarni virtual kutubxonaga joylaydilar) shakllantirilganligi bilan o’zining virtual va vizual muqobillaridan ajralib turishi isbotlanganiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022–2023-yillarga mo’ljallangan Erasmus+ dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP- ERASMUS+CBHE IMEP: “O’zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 16-iyundagi 1809/30.0201-son ma’lumotnomasi). Natijada UzEDL platformasi doirasida virtual kutubxona shakllantirilib, o’quv adabiyotlari bilan boyitilgan;

masofaviy ta'limning interaktivlik, o'zlashtirish, muvofiqlik, multimedialik, monitoring va baholash, individual o'rganish, qo'llab-quvvatlash, zamon va makon erkinligi kabi o'ziga xos xususiyatlari aniqlangani va tajriba-sinov ishlari asosida UzEDL platformasining masofaviy ta'limda qo'llanilishi, faol tajriba almashinuv va halol raqobatni shakllantiradigan yangi milliy tajriba ekanligi, tilni masofaviy o'qitishdagi samaradorlik jihatlarini dalillanganiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-iyunda efirga uzatilgan "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 23-iyundagi 01-07/224-son ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning masofaviy ta'lim jarayoni, uni tashkil etish, UzEDL platformasidan foydalanish, shuningdek, ushbu platformaning tizimdagi o'rni va ahamiyati borasidagi tasavvurlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta respublika, 2 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik ishlarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shulardan 6 ta respublika va 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, shuningdek, turli ilmiy to'plamlarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosa, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda ta'limning masofaviy shakli, masofaviy tarzda ingliz tilini o'qitishning pedagogik texnologiyasi, metodologiyasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Bobning birinchi paragrafi "**Masofaviy ta'lim shakli, uning taraqqiyoti va ahamiyati**" deb nomlangan. Masofaviy ta'lim (MT) bu – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi aloqada muayyan masofa, vaqt va makon bo'lishini anglatadi. Yana boshqacha qilib aytganda, an'anaviy sinf muhitida o'quvchilarning jismonan mavjud bo'lmasligi, ular bilan virtual aloqa vositasida, aksariyat hollarda esa individual asosda ta'lim berish nuqtayi nazaridan bog'lanishni nazarda tutadi. Fan va ta'lim, sanoat, ishlab chiqarish, boringki, jamiyatdagi istalgan siljish va innovasion o'zgarishlar yetilgan zarurat va talablar zamiri o'laroq vujudga keladi, sayqallanadi va rivojlanadi. Ta'limning masofaviy shakli ham shu omillar

hosilasidir. Bizda mavjud ma'lumotlarni chuqur tahlil qilib, MT berishning dastlabki paydo bo'lishi AQShning Massachusets shtatida bosiladigan Boston gazetasidagi 1728-yil masofadan turib talabalarni o'qitish haqidagi e'lon berilishi orqali boshlangan⁵ deyish mumkin. Ko'rinib turibdiki, MTning dastlabki shakli o'sha davr jamiyatining eng ommabop bo'lgan axborot resursi – gazeta vositasida yuzaga kelgan. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning keyingi evolyutsiyasi – radio, televideniye va nihoyat 1961-yilda internetning vujudga kelishi bilan MTning shiddat bilan rivojlangan davriga ham yetib keldik. Inernetning 2G, 3G, 4G va nihoyat reallikka aylanib ulgurgan 5G avlodli yuqori tezlikdagi internet manbayining borligi, MT borasida to'plangan qimmatli tajribalar, shuningdek, MTga bo'lgan zaruratning mavjudligi uning vizual auditoriyadagi imkoniyatlarini virtual auditoriyada ham taqdim etish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda internet tarmog'i MT berishda eng yetakchi texnologik vositaga aylandi. MTda o'quvchilarning qay tarzda ishtirok etishiga qarab, uning ham *sinxron*, *asinxron*, *gibrid (aralash masofaviy+an'anaviy ta'lim)* *e-learning*, *m-learning*, *elektron ta'lim*, *belgilangan vaqtdagi onlayn video kurslar* va yana qator o'nlab turlari shular jumlasidandir.

Birinchi bobning “**Masofaviy ta'lim obyektlarining o'ziga xos xususiyatlari**” nomli ikkinchi bandida MT obyektlari xususida so'z boradi. MTni tashkil etishda bevosita va bilvosita ishtirok etadigan usul, uslub, metod, shuningdek, texnik va texnologik ta'lim vositalari uning obyektini tashkil qiladi⁶. Usullar obyekt sifatida MTning asosiy me'zonlaridan biridir. MTni tashkil etadigan obyektlar, ya'ni uni tashkil etishda ishtirok etadigan axborot texnologiyalarni quyidagi uch katta guruhga bo'lish mumkin:



1-rasm. Masofaviy ta'limni tashkil etadigan axborot texnologiyalari guruhi

MTning tashkiliy qismini quyidagi uch tarkibiy qismlarga bo'lishimiz mumkin:

- a) ta'lim manbasi ya'ni ta'lim axboroti;

⁵ Holmberg B. The evolution, principles and practices of distance education// Vol. 11. Studien und Berichte der Arbeitsstelle Fernstudienforschung der Carl von Ossietzky Universität Oldenburg. – Berlin, 2011. – P. 13.

⁶ Кваша Д.Ю. Дистанционное обучение как средство интенсификации процесса обучения в системе повышения квалификации. – Минск, 2007. – С. 181-185.

- b) ta'lim texnologiyalari;
- c) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Ta'lim manbalari va masofaviy ta'lim metodlari MT texnologiyalari orqali virtual auditoriyaga havola etiladi. Ularni havola etadigan ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi masofaviy muloqotni ta'minlaydigan MT texnologiyalari ham turfa bo'lib, bunga misol tariqasida *radio va telekurslar, audiokonferensiyalar, videokonferensiyalar, multimedialar, veb-translyatsiya vositalari* kabilarni misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. MTdagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa MT axboroti va MT texnologiyalarini virtual olamda qo'llash imkoniyatini ta'minlab beradi.

MTni ta'minlashda ishtirok etadigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari MTni taqdim etish vaqtiga ko'ra, ta'lim oluvchilarga *sinxron* va *asinxron* shaklda uzatadi. Bu ikki tur o'quvchilarning dars jarayoniga qaysi paytda ishtirok etishiga ko'ra farq qiladi.

MTda shaxsiy kompyuter texnologiyalari va gadjetlarning ishtirokiga ko'ra *e-learning* (elektron o'rganish) va *m-learning* (mobil o'rganish) kabi turlarga bo'lish mumkin. Bundan tashqari, gibrid – aralash MTni taqdim etuvchi texnologiyalar ham mavjud bo'lib, ular aralash xususiyatni namoyon etadi. Har bir texnologiya o'zida muayyan imkoniyat va ma'lum kamchiliklarni mujassam etishi mumkin. Shu jihatdan qaralsa, ularning kombinatsiyalashgan tipiga murojaat qilish foydali bo'lishi mumkin. Mazkur kombinatsiyalar gibrid MTni taqdim etuvchi texnologiyalar deb nomlanib, ushbu gibridlik *sinxron* va *asinxron*, *e-learning* va *m-learning*, MTdagi metod va ta'lim texnologiyalari yoki ularning bir nechtasi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin. Gibridlik tarkibidagi komponentlar belgilangan maqsadga erishishning eng optimal usullaridan kelib chiqib ta'lim muassasasi va pedagoglarning hamkorligida shakllantiriladi. **Shu o'rinda aytib o'tishimiz lozimki, ushbu bobda masofaviy ta'lim taraqqiyoti, ahamiyati, shakllari va obyektining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish davomida ushbu omillarning ilm-fanning barcha sohalari, xususan, ingliz tilini o'rganishdagi o'rni ham beqiyosdir.**

Birinchi bobning **“Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitish metodlari va texnologiyalari”** nomli uchinchi bandida MTda ingliz tilini o'qitishning qator samarali metod va texnologiyalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Bugungi kunga kelib, MTda ingliz tilini o'qitishning bir necha o'nlab metod va texnologiyalar o'zining samaradorligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Metodlar: 1) *Grammar translation method*, 2) *Direct method*, 3) *Communicative Language Teaching (CLT) method*, 4) *Audio-lingual method* 5) *Structural method*, 6) *Suggestopedia method*, 7) *Total physical response method*, 8) *Lecture method*, 9) *Content and Language Integrated Learning (CLIL) method*;

Texnologiyalar: 10) *Film and video*, 11) *Apps*, 12) *Podcasts*, 13) *Pen Pals*, 14) *Onlayn games*, 15) *Blogging*, 16) *Skype*. *Grammar-translation method* ingliz tilini endi o'rganishni boshlaganlar uchun kursga kirish vazifasini o'tab beradi, unda leksik va grammatik bilimlar hamohanglikda olib boriladi. Shuningdek, unda ta'limning an'anaviy, masofaviy va gibrid shakllarida birdek foydalanish va u

deyarli barcha ta'lim texnologiyalari bilan adaptasiyaga kirisha oladi. *Direct* metodda chet tilini suhbat, munozara va o'qish orqali o'rgatish ustuvorlik qiladi. Uning ahamiyatli jihati shundaki, o'rganilayotgan mavzu matni o'quvchining ona tiliga tarjima qilinmasdan, o'rganilayotgan til doirasida olib boriladi. Ya'ni og'zaki nutqqa ko'proq e'tibor qaratilib, gapirish ko'nikmasini oshirish ustuvorlik qiladi. CLT metodi vositasida nafaqat ingliz tilini o'rgatish, shu bilan birga, inglizcha so'zlarning qo'llanilish doirasi (rasmiy, ilmiy, badiiy, oddiy so'zlashuv uslubi) haqida ham mashg'ulotlar olib boriladi. CLTda ingliz tilini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha mashg'ulot turlari bor. Bular *Task-completion, Information-gathering, Opinion-sharing, Information-transferring* mashg'ulotlaridir. *Structural* metod ingliz tilini o'rganishdagi strukturaviy yondashuv bo'lib, til elementlarini intensiv tekshirishga yordam beradi. Mazkur strategiya tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplar va lug'at kabi til morfologiyalarini o'qitishga va tahlil qilishga asosiy urg'u beriladi. MTda qo'llaniladigan *Lecture* metodining qulayligi ham bir qator bo'lib, u deyarli barcha elektron texnologiyalariga moslashtirishi, sinxron va asinxron, gibrid shakllarda qo'llanila olishi, sarf-xarajatlar kam talab qilinishi, shuningdek, bir dars mashg'ulotidan qayta-qayta dars o'tishda foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. *Audio-lingual* metod va *Suggestopedia* metoddan ham MTda faol foydalanish mumkin. Ularning birinchisida og'zaki muloqotga katta o'rin berilsa, ikkinchisida ko'rgazmalilik jihatlari ustuvorlik qiladi. CLIL metodida til bilan birgalikda muayyan fan tarkibini ham o'rganadigan yondashuv hisoblanadi. *Pen Pals* esa dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari o'rtasida aloqalar o'rniladi. *Pen Pals* doirasidagi onlayn inglizcha muloqot bolalar dunyoqarashlarini kengaytiradi, madaniyatlararo bilimlarini oshiradi. Ushbu pedagogik texnologiyaning samaradorlik jihatlari birinchidan, o'qish va yozish ko'nikmalarini oshiradi. Chunki, *Pen Pals* foydalanuvchilari bir-birlariga yozma maktublar yozishadi va bir-birlarining maktublarini o'qishadi. Ikkinchidan, sof ingliz tilida so'zlashuvchi sinf bilan muloqot qilish mas'uliyatini yuzaga keltiradi. *Blogging*da ko'pincha muallif tomonidan beriladigan havolalar, sharhlar, giperhavolalar mavjud. Osongina yaratilishi va ko'p kompyuter sozlamalari talab qilmasligi hisobiga o'rganuvchi uchun qulay va shaxsiy interaktiv kundalik hisoblanadi. Bloglar *tutor blog, class blog, learner blog* kabi turlarga bo'linadi. Shuningdek, ingliz tilini MTda o'rgatish uchun film va video, online games, podcastlar kabi texnologiyalarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlardan ingliz tilini masofaviy o'rgatishda samarali foydalanish mumkin. Ushbu metodlar o'z samarasini berishda talabalar auditoriyasi va ulardagi til ko'nikmalarining darajasi ham katta o'rin tutadi. Shu o'rinda, biz tadqiqot davomida 4 ta til bilish ko'nikmalari rivojlantirishda quyidagi ingliz tilini o'qitish metodlari samaraliroq deb topdik:

Gapirish til ko'nikmasini rivojlantirishda "Grammar-translation method" (Grammatik tarjima metod)ning o'rni shundaki, u garchi an'anaviy metodlardan biri bo'lsada tadqiqot ishi davomida uni masofaviy ta'limda foydalanish uchun asinxron shaklda, ya'ni yangi mavzuni Power Point taqdimoti yoki Google slaydlari orqali o'zlashtirgan talabalardan maxsus onlayn so'rovnoma o'tkazish

yordamida mavzu mustahkamlanadi va bunda harf emas, balki gap strukturasi tushirib qoldirilgan soʻzlarni topish orqali koʻnikma mustahkamlanadi. Shuningdek, Direct method (Toʻgʻridan-togʻri metod) foydalanish natijasida oʻrganilayotgan mavzu matni til oʻrganuvchining ona tiliga tarjima qilinmasdan, oʻrganilayotgan til doirasida suhbat olib boriladi. Yaʼni ogʻzaki nutqqa koʻproq eʼtibor qaratilib, gapirish koʻnikmasini oshirishga urgʻu beriladi. Nutqni oshirishga yordam berishi uchun dars jarayoni multimedia vositalari va koʻrgazmali materiallardan ham foydalanish mumkin. Bu metod masofaviy dars mashgʻulotlarida faqatgina ogʻzaki nutqni rivojlantirish yuzasidan qoʻllanilishi mumkin. Ingliz tilini endi oʻrganayotgan tinglovchilar uchun Direkt metod yaxshi samara bermasligi mumkin. Negaki, unda yuqorida aytganimizdek, ogʻzaki muloqot uchun keng oʻrin berilib, ingliz tilida muayyan voqelik muhokoma qilinadi. Bu koʻnikmani mustahkamlashda yana bir metod, Communicative Language Teaching (CLT) (Kommunikativ tilni oʻrgatish metodi) metodi yordamida vazifani bajarish, axborot yigʻish, fikr almashish, axborot uzatish kabi mashgʻulotlarini bajarish orqali muloqot qilish, yaʼni gapirish koʻnikmasini oshirishga erishiladi. Bu metod talabalarning ingliz tilini oʻrganish uchun motivatsiyasini oshirish, ularning kommunikativ mahoratlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Eshitish til koʻnikmasini rivojlantirishda Lecture method (Maʼruza metod)ning samaradorligi yuqori deb topildi, albatta bu metodda oʻqituvchining maʼruzasi bilan birga audio va video materiallaridan ham oʻrinli foydalanishi mumkin. Bu metoddan foydalanishda axborot texnologiyalarining ahamiyati muhim sanaladi.

Oʻqish va Yozish til koʻnikmalarini rivojlantirishda “Pen pols” metodining ahamiyati shundaki, unda til oʻrganuvchilar bir-birlari bilan oʻzaro yozma maktublar yozish, ularni oʻqish orqali oʻz koʻnikmalarini mustahkamlaydi. Albatta, bu holatlar oʻqituvchilar tomonidan tekshirilib, xato va kamchiliklar toʻgʻrilanib boriladi.

Yuqorida ingliz tilini anʼanaviy va masofaviy oʻqitish va uning metodologiyasi bilan izlanishlar olib borgan, jahondagi va respublikamizdagi olimlar keltirib oʻtilgan. Quyida biz, olimlarning ingliz tilini oʻqitish metod va xususiyatlariga toʻxtalib oʻtmoqchimiz. Avvalo, respublikamiz olimlaridan J.Jalolovning Chet til oʻqitish metodikasi kitobida “Metodika” terminiga “Metodike” soʻzi yunoncha boʻlib “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui” maʼnosini bildiradi” deb keltirgan taʼrifini taʼkidlab oʻtmoqchimiz. Shuningdek, J.Jalolov Chet tili oʻqitish metodikasini ikki guruhga: yoʻnalishlariga koʻra Tarixiy metodlari (ular tarjima metodi, toʻgʻri metod, aralash metod va qiyosiy metod)ga hamda faoliyat usullariga koʻra Jarayon metodlari (tanishish metodi, mashq qilish metodi va qoʻllash metodi)ga ajratadi va ularning xususiyatlarini tahlil qilib beradi. Albatta, oʻzbek olimlaridan Oʻ.Hoshimov, I.Yoqubov, J.Shabanov, G.Maxkamova, Sh.Ashurovlar ham ingliz tilini oʻqitish metodikasi, uning ahamiyatli jihatlari hamda til oʻrganuvchilarning koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblangan oʻqitish metodlariga alohida urgʻu berib oʻtishgan. Turkiyalik olimlar U.Demiray va A.Ismanlarning izlanishlariga koʻra

1971-yilda Qo‘shma qirollik ochiq universitetida masofaviy ta‘limning yo‘lga qo‘yilishi Xitoy, Kosta Rika, Eron, Yaponiya, Malayziya, Negeriya, Polsha, Ispaniya, Shri Lanka, Tayvan, Tayland kabi davlatlarda ham masofaviy ta‘lim metodi sifatida kirib kelishi bilan izohlanadi. Bunda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ingliz tilini o‘zlashtirishda samarali metod sifatida audio va video konferensiyalar yordamida foydalaniladigan audiokonferens va videokonferens metodlari sifatlanadi. Serbiyalik olimlar M.Trajanovich, D.Domazet va B.M.Ilic o‘z ilmiy izlanishlarida tilni masofaviy o‘rganishda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi internet aloqasining ahamiyatiga to‘xtalib o‘tib, ingliz tilini o‘qitish metodlaridan chat, VoIP va video konferensiyalar yordamida amalga oshiriladigan sinxron metod hamda elektron pochta va forumlar yordamida amalga oshiriladigan asinxron metodlarining xususiyatlarini ilmiy asoslagan. Shu bilan birga, ular an‘anaviy metodlarning farqli jihatlariga tayangan holda masofaviy til o‘qitishda tashkiliy o‘zgaruvchan metod (muammo, strategiya va yechimga olib keluvchi) va turli innovatsion vositalar metodi (tanqidiy fikrlash, axborotni kengaytirish, ijodkorlik va rivojlanishga olib keluvchi) metodlarga e‘tibor qaratadi.

Professor P.Muyinda masofaviy ta‘lim orqali ingliz tilini o‘rgatishda o‘qituvchi va talabalarning virtual aloqasini ta‘minlaydigan, axborot texnologiyalardan foydalanib samaradorlikka erishish mumkin bo‘lgan audiovevual va videokonferens metodlarining xususiyatlariga to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, u “The case-based teaching” (aniq holatlarga asoslangan) metodining ahamiyatli jihatini, faol va muammoli o‘rganishga asoslangan kognitiv ta‘lim jarayonida o‘z samarasini berayotgan o‘qitish metodi sifatida izohlaydi. Bangladeshlik olim M.Syed ta‘biri bilan aytganda strukturaviy metodning afzalligi, talabalarning ilmiy faoliyatida ularga motivatsiya berishida deb izohlaydi. Shuningdek, M.Simonson, Sh.Smaldino, S.Zvaceklar o‘zining “Teaching and learning at a distance” hamda Mary Burns “Distance education for teacher training: Modes, Models and Methods” kitoblarida ingliz tilini masofaviy tarzda o‘qitish xususiyatlari, til o‘rganuvchilarning to‘rtta ko‘nikma bo‘yicha o‘z bilimlarini mustahkamlash borasidagi samarali metodlar to‘g‘risida ilmiy qarashlarini asoslab beriladi.

Tadqiqotning **“Masofaviy ta‘limda ingliz tilini o‘qitish metodlari va vositalari”** nomli ikkinchi bobida ingliz tilini MT orqali o‘qitish amaliyoti, milliy MT platforma – **“UzEDL” elektron platformasi dasturi va undan foydalanish, “UzEDL” elektron platformasi** vositasida MTda ingliz tilini o‘qitishning samaradorligi jihatlari bayon qilingan. Bobning birinchi bandi nomi **“Ingliz tilini masofaviy ta‘lim orqali o‘qitish amaliyoti”** deb nomlangan.

Masofadan turib ta‘lim berish uchun muayyan platformaga murojaat qilinadi. Bu platforma esa ta‘lim beriladigan fan predmeti, qo‘yilgan maqsad, auditoriya yosh chegarasi singari omillar hisobga olinib tanlanadi. Bugungi kunda ta‘lim berishga ixtisoslashgan platformalarning soni 200 dan ortiq ekanligi ma‘lum. Ushbu platformalarning o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) maxsus kurslarni o‘zida jamlagan masofaviy ta‘lim platformalari (MKO‘JMTP – Coursera, Udemy, Skillshare, MasterClass, EdX, Udacity, Final

Verdict, Pluralsight, FAQs, Methodology, Open Education, Universarium, Lektorium, Pimsleur, Preply, mondy, uTalk, Italki, Busuu, Motion, Byju's, Vedantu, Toppr, Meritnation, Google Digital Garage, LMS, Bilimland, Google classroom, Univer va shu kabilar);

b) muayyan ta'lim muassasi bazasidagi masofaviy ta'lim platformalari (MTMBMTP – Plitonus, Uniwork, NamDU, HEMIS va Moodle ta'lim platformalari);

c) yordamchi masofaviy ta'lim platformalar (YMTM – Zoom, Google Meet, Glip by RingCentral, Cisco Webex, Microsoft Teams, GoToMeeting, Skype Meet Now, Wire, JITsi Meet, Discord, Telegram va hokazolar).

O'zbekistonda masofaviy ta'lim uchun ehtiyoj bor. Mazkur jihat 2000-yillar boshlaridayoq yaxshi tushunilgan, ammo bu jarayonga birdan o'tish imkonsiz edi. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik uzoqlashgan tumanlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga turtki beradi. 2005-yil 2-iyun kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining PQ-91 Qarori bilan TATUning Qarshi, Samarqand, Urganch va Farg'onada mintaqaviy filiallari tashkil qilindi⁷. Shu davrdan boshlab TATU tomonidan elektron darsliklar yaratish, ta'limni axborotlashtirish istiqbollari yuzasidan kadrlar tayyorlana boshlandi. 2000-yildan o'z ishini boshlagan AQSH Davlat Departamentining Ta'lim va Ma'daniyat masalalari bo'yicha byurosi (ECA) va Xalqaro Ilmiy Tadqiqotlar va Olimlarni Tayyorlash Kengashi (IREX) tomonidan tashkil qilingan "Internetdan foydalanish va o'qitish programmasi" (<http://www.iitp.uz>) va "O'zbekiston maktablarida Internet" (<http://www.connect.uz>) programmalarini⁸ elektron ta'limdagi dastlabki bosqichlarga kiritish o'rinli. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan O'zbekistonni 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasining 5 ta ustuvor yo'nalishida ham axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish zarurati kun tartibiga qo'yildi. Har bir yo'nalish doirasida belgilab olingan vazifalarni bajarish yuzasidan tuzilgan komissiya tarkibiga Axborot texnologiyalari vazirligi jalb qilindi⁹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni¹⁰ga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida, 2022-yil 22-avgust kuni Prezidenting "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori¹¹ imzolandi.

⁷"Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kirish ballari 2024" <https://oliygoh.uz/oliygohlar/toshkent-axborot-texnologiyalari-universiteti> (Murojaat sanasi: 23.012.2023)

⁸ Dusienov N., Ahmedov B. Masofaviy ta'lim tizimi// ResearchGate, 2021. – B. 10-11.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni <https://lex.uz/acts/-3107036> (Murojaat sanasi: 10.07.2022)

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/-5841063> (Murojaat sanasi: 22.10.2022)

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son Qarori// <https://lex.uz/uz/docs/-6166539> (Murojaat sanasi: 26.12.2022)

Ikkinchi bobning **“UzEDL elektron platformasi va undan foydalanish”** nomli ikkinchi bandida ingliz tilini MTda o‘rgatishga ixtisoslashgan UzEDL dasturi va undan foydalanish ko‘rsatib berilgan. UzEDL platformasi nisbatan sodda interfeysga ega bo‘lib, bu foydalanuvchilar uchun murakkablik tug‘dirmaydi. UzEDL platformasiga <http://uzedl.uz/> domini orqali kirishingiz bilan uning umumiy oynasi ochiladi va yuqori o‘ngda joylashgan ro‘yxatdan o‘tish tugmasi orqali ro‘yxatdan o‘tishingiz mumkin bo‘ladi. UzEDL platformasining xavsizlik jihati bilan birga ro‘yxatdan o‘tish jarayonini soddaligiga ham ahamiyat berildi. Har bir foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tishda platforma uchun o‘ziga nom va yashirin kalit kiritadi hamda elektron pochta manzilini ko‘rsatgan holda ro‘yxatdan o‘tishi mumkin bo‘ladi.

Bir shaxsning qayta ro‘yxatdan o‘tishiga yo‘l qo‘yilmaydi, hamda bitta pochta manzilidan ham bir marta foydalanish mumkin. Platforma interfeysining yuqori qismida “Home”, “Our teachers”, “Library”, “Courses” hamda “Contact” menyulari joy olgan. Barcha ma’lumotlar “Home” menyusida joylashgan bo‘lib, bu platforma haqida umumiy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan bosh interfeysdir.

“Courses” menyusi platformaning online darslar joylashgan asosiy menyusi bo‘lib, unga kirilgan paytda CEFRning muayyan darajasini tanlash va uni boshlash tasdig‘i haqidagi qismlar joylashgan. Platformada CEFR imtihonlariga tayyorgarlikka asosiy urg‘u berildi. Shu bois unga kirgan til o‘rganuvchilari CEFRning darajaviy qismlari bo‘lgan “A1”, “A2”, “B1”, “B2”, “C1” va “C2” kurslarga duch keladi. Olaylik, yangi til o‘rganuvchi “B1” kursini tanlamoqchi, buning uchun oynani o‘ngga harakatlantirish belgisini bosishi kerak bo‘ladi va “darsni boshlash” qismi tanlanadi. “Courses” menyusi CEFR imtihonining tarkibiy qismi bo‘lgan til ko‘nikmlari – “Listening”, “Reading”, “Speaking”, “Writing” va qo‘shimcha ravishda “Vocabulary”, “Test” qismlaridan iborat.

Yuqoridagi 4 ta til ko‘nimlari darslarida mutaxassislar tomonidan CEFRning “B1” darajasiga moslashtirilgan dars materiallari: maxsus matnlar, lug‘atlar va audio ma’lumotlar beriladi. Ushbu umumiylik UzEDLdagi CEFRning boshqa darajalarida ham qaytarilib, ulardagi xususiylik kurslarga moslashtirilgan dars materiallari bilan farqlanadi. “Courses” menyusining “Test” qismida har bir o‘qituvchi o‘z kursidagi miteriallardan kelib chiqib, maxsus test yaratadi. Bunda muayyan kursni muvaffaqiyatli tugatgan yoki tugatmaganligi yuzasidan o‘qituvchining shaxsiy sinovini ifodalaydi. Ushbu til ko‘nikmalari test kurs ichidagi materiallar hisobga olinib, kursni shakllantirgan o‘qituvchning me‘zonlar doirasidagi ijodkorligidan kelib chiqadi. Ushbu qismda 90-100 foiz natija qayd etgan til o‘rganuvchilar faqatgina bir kursni muvaffaqiyatli tugatganini anglatadi. Ya’ni “B1” kursidan 100 foiz natija qayd etgan o‘quvchi “C1” yoki “C2” darajada ekanligini anglatmaydi. “Library” qismi o‘z nomi bilan platformaning virtual kutubxonasidir. Bu yerda UzEDLdagi virtual ta’limni tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar bilan bir qatorda, qo‘shimcha adabiyotlar ham joy olgan. Ya’ni ushbu menyudagi manbalar quyidagi 4 qismdan iborat: “Children’s literature”, “Fiction book”, “Textbooks” va “Dictionaries”. Ushbu qismlardagi adabiyotlar va manbalar til o‘rganuvchilarning so‘z boyligi va tasavvurini oshirish hamda til o‘rganishiga qo‘shimcha manba bo‘lib hisoblanadi. Agar o‘quvchi o‘zi tanlagan kurs ichidagi materiallardan to‘laqonli qoniqish hosil qilmagan taqdirda, u

“Library” menyusiga tashrif buyurish orqali o‘zi o‘rganayotgan tilga doir kitoblarni topib o‘qishi mumkin bo‘ladi “Library” qismi o‘z nomi bilan platformaning virtual kutubxonasi. Bu yerda UzEDLdagi virtual ta’limni tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar bilan bir qatorda, qo‘shimcha adabiyotlar ham joy olgan. Til ko‘nikmlari – “Listening”, “Speaking”, “Writing”, “Reading”ga mos ravishda turkumlangan. Platformadagi kurslarda “Vocabulary” qismida tahsil olayotgan darajada foydalanilgan materiallar doirasida yangi so‘zlar kiritilgan bo‘lsa elektron kutubxonadagi “Dictionaries” bo‘limida lug‘at kitoblar joy olgan bo‘lib, foydalanuvchilar ushbu lug‘at kitoblardan onlayn foydalanishlari mumkin. Shuningdek, “Contact” menyusida platforma va u bilan aloqaga kirishish, platforma moderatorlari uchun esa MTda til o‘rganuvchilarning bog‘lanish ma’lumotlari joy olgan.

UzEDL platformasining asosiy ahamiyatli jihati shundan iboratki, <http://uzedl.uz/admin> domeni orqali UzEDL platformasi professor-o‘qituvchilari o‘zlari yaratgan kurslarga bevosita ma’lumot kiritish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ya’ni, professor-o‘qituvchilarga taqim etilgan login va parol orqali dominga kirishi bilan platformaning resurslar bazasiga kiriladi hamda platformaga o‘quv materiallari kiritish, kiritilgan materiallarni tahrirlash, platformadan foydalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rish, natijalarni tahlil qilish imkonini qo‘lga kiritishadi.

Ikkinchi bobning uchinchi bandi **“UzEDL” elektron platformasi vositasida masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitishning samaradorligi**” deb nomlangan. Unda milliy MT platformadan foydalanishning samaradorlik jihatlari bayon qilingan.

Mamlakatimizda UzEDL milliy elektron platformasi vositasida ingliz tilini o‘qitishning samaradorligi quyidagi jihatlari bilan belgilanadi:

- a) O‘zbekiston ilm-fanining zamon bilan hamnafas rivojlanishiga hissa qo‘shadi;
- b) AT yutuqlaridan foydalangan holda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha milliy tajriba yaratish va imkoniyatlarni baholash uchun sharoit yaratiladi;
- c) ingliz tilini o‘rganish yuzasidan o‘quvchilarga qator yengilliklar yaratiladi (makon va zamon, moddiy tomondan shaxsiy mablag‘larning iqtisod qilinishi, tajribali o‘qituvchilardan dars olishning cheklanmagan imkoniyati va h.k.).

UzEDLning ingliz tilini o‘rganish borasidagi yengilliklari u beradigan imkoniyatlar bilan belgilanadi. Bu imkoniyatlardan biri uning foydalanish qulay interfeysidir. UzEDL samaradorligini taminlaydigan asosiy jihatlardan yana biri, platforma ichidagi o‘qituvchilar jamoasi va ular qo‘llaydigan til o‘rgitish metod va texnologiyalari bilan bog‘liq.

UzEDLning listening ko‘nikmasini o‘rgatadigan qismi quyidagi vositalarni o‘z ichiga oladi: *“Interpersonal activities”*, *“Group activities”*, *“Audio segments”* va *“Video segments”*. Ushbu vositalar ichida o‘qituvchining shaxsiy ijodkorligidan kelib chiqib turli listening mashg‘ulotini olib borish metodlari shakllanishi mumkin bo‘ladi. Taklif etayotgan milliy platformamiz yuqorida sanab o‘tilgan to‘rt tarkibiy qismning mohiyatlarini o‘zida mujassam eta olishi UzEDLning foydalanishga to‘la yaroqli va ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy talablariga javob berishini ko‘rsatib berishi bilan ahamiyatlidir. UzEDLdagi reading matnlar til

o'rganuvchilar uchun o'zlarida quyidagi strategiyalardan foydalanishni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi. Ushbu strategiyalarga misol qilib, "Previewing" – dastlabki ko'zdan kechirish, "Predicting" – matnni umumiy prognoz qilish, "Skimming and scanning" – matnni ko'rish va sintez qilish, "Guessing from context" – matndan taxmin qilish, "Paraphrasing" – qayta ifodalash kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bu kabi ketma-ketlik boshqa soha mutaxassislari tomonidan ham e'tirof etilmoqda va amaliyotga tadbiiq etilgan¹². Writing borasida UzEDLda avtomatlashtirilgan yozish texnikasi metodologiyasini joriy qilish imkoniyati bor. Ushbu metodda yozish uchun maxsus dasturdan foydalaniladi. Olaylik, bu Ms word matn muharririda "grammarly" qo'shimcha dasturi bo'lishi mumkin. Ushbu dastur til o'rganuvchilarning, imloviy, punktuatsion, grammatik va morfologik xatoliklariga ishora qiladi. Ushbu qo'shimcha dasturdan foydalanish til o'rganuvchilar uchun psixologik yukni ma'lum ma'noda kamaytira oladi. Speaking til ko'nikmasini shakllantirish uchun hozirgi paytda video va audio materiallar, videokonferens aloqa, video va audio chatlar, shuningdek, *Speak English Fluently* singari mobil ilovalar imkoniyatidan foydalanish istiqbollari ko'rib chiqmoqdamiz.

Yuqoridagi to'rtta til ko'nikmasini zarur darajada o'zlashtirish uchun so'z boyligini oshirish va faol mutolaa zarurdir. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun esa, UzEDLning "Dictionary" va "Library" bo'limlari yordamga keladi. "Dictionary" bo'limida lug'atlarning turli xil guruhlari kataloglashtirilgan tarzda beriladi. Dictionary bo'limidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, so'zlarni izlashga qulay sodda interfeys bilan bir qatorda, ulardan foydalanish qulayligini oshirish uchun mavzuviiy (tematik), muayyan kasb yoki soha, jarayon, makon va zamon nuqtayi nazaridan ham guruhli tarzda berilgan o'rinlarga urg'u berilish vositasida so'z boyligini oshirishga alohida ahamiyat beriladi.


UzEDLning "Library" bo'limi ham tafsilotlarga boy qism bo'lishi uchun dasturchilar bilan keng ish qilindi. Mazkur bo'limda CEFR test tizimiga tayyorlanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar joy olgan. Umumiiy qismda ingliz tiliga o'girilgan o'zbek va jahon asarlari, ingliz tilida yozilgan va jahon durdonasiga aylanib ulgurgan badiiiy kitoblar, shuningdek, publitsistik, didektiv, fantastik va ilmiy ommabop asarlar joy olgan. Bu kitob o'qishni xush ko'ruvchi til ixlosmandlari uchun ayni muddao bo'lib, ular ushbu qismda til o'rganish barobarida, o'zining kitoblarga bo'lgan ma'naviiy ehtiyojlarini ham qondirib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

"Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish natijalari" deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari hamda pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari bayon qilingan. Bobning birinchi bandi **"Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari"** deb nomlangan.

Tajriba-sinov ishlariga qo'yilgan ilmiy-metodik talablarga ko'ra, pedagogik tajriba-sinov ishlari uchun maydon sifatida respublikamiz bo'ylab jami 3 ta OTM tanlab olindi. Bular Samarqand davlat chet tillar instituti (SamDChTI), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU), Jizzax davlat pedagogika

¹² Dr Sheeba. Teaching Reading: Goals and Techniques. Majmaah University, KSA. – P. 11.

universiteti (JDPU). Samarqand davlat chet tillar institutining №01-13/22-812-sonli xati, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining №01-02/2-6-604-sonli, Jizzax davlat pedagogika universitetining №01-01/1-1029-sonli buyruqlariga asosan tasdiqlandi. Belgilangan barcha OTMLlarda 1-kursdan 4-kursgacha bo‘lgan talabalar orasida tajriba-sinov ishlari tashkillashtirildi.



2-rasm. Tajriba-sinov maydonining tavsifi


Tajriba-sinov ishi uni tashkillashtirishga qo‘yilgan ilmiy-metodik talablarga ko‘ra olib borildi. Unga ko‘ra, tadqiqotning tajriba-sinov ishida eksperimental tanlanma miqdori tajriba boshida 401 ta va tajriba so‘nggida 393 nafar ishtirokchidan iborat bo‘ldi.

UzEDL platformasini sinovdan o‘tkazish yuzasidan dastlabki ishlar boshlandi. Respondentlarga umumiy, qiyinlik darajasi turlicha bo‘lgan “Listening”, “Reading”, “Speaking”, “Writing” ko‘nikmasiga oid umumiy 25 tadan savol berildi. Bu dastlabki test nafaqat platformaning sinov bosqichida, shu bilan uning keyingi faoliyatida ham ajralmas qismligicha qoladi. Ushbu bosqich vositasida platformaga tashrif buyurib, til o‘rganishni boshlagan o‘quvchi o‘z darajasini biladi va shunga monand tarzda guruhga jalb etiladi. Shu tarzda 3 oylik tajriba-sinovlari boshlandi va uning natijalarini quyida ko‘rib o‘tamiz.

“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari” deb nomlangan ikkinchi band UzEDLning MT ingliz tilini o‘qitishning samaradorlik ko‘rsatkichlari ilmiy tahliliga bag‘ishlandi.

OTMLlarda tajribaga jalb qilingan talabalar I-IV kurs talabalari bo‘lib, ya‘ni SamDChTIda 124 nafar, O‘zDJTUda 102 nafar, JDPUda 175 nafarni tashkil qildi. Ular jami 401 nafardan iborat bo‘lib, ularni CEFR baholash tizimi talablari asosida “B2” darajadan “C1” darajaga tomon o‘shini ilmiy prognoz qilishdan iborat edi. OTMLardagi UzEDL platformasining samaradorligi yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov uch bosqich, ikki yo‘nalishda olib borildi. Boqichlar quyidagicha edi: 1) UzEDLga talabalarni jalb qilish oldidan taqdim etilgan sinovchi va saralovchi materiallar; 2) platformadan foydalanish jarayonida talabalarining bilimni baholaydigan materiallar; 3) yakuniy natijalarni ko‘rsatib beradigan materiallar. Yo‘nalishlar: a) tajriba guruhlari; b) nazorat guruhlari.

Tadqiqot ishtirokchilari soni



Dastlabki bosqichda tajriba guruhlari va nazorat guruhlari qayd etgan ko'rsatkichlarda katta farq yo'q edi. 3 ta oliygohdan jalb qilingan respondentlarning dastlabki bosqichdagi til ko'nikmalaridan qayd etgan natijalari savollar soniga nisbatan foizda tajriba guruhiniki 67 %, nazorat guruhiniki 68 % da edi.

1-jadval.

3 ta oliy ta'lim muassasasidagi talabalarining umumiy natijalari

T/r	Guruh nomlari	Dastlabki natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	O'rta natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	So'nggi natija	Umumiy farq
1	Tajriba guruhi	67	6	73	6	79	12
2	Nazorat guruhi	68	2	70	2	72	4
3	Umumiy	68	4	72	4	76	8

2-jadval.

SamDChTI Ingliz tili-II fakulteti talabalarining natijalari

T/r	Guruh nomlari	Dastlabki natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	O'rta natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	So'nggi natija	Umumiy farq
1	Tajriba guruhi	69	4	73	6	79	10
2	Nazorat guruhi	67	2	69	2	71	4
3	Umumiy	68	3	71	4	75	7

3-jadval.

Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti talabalarining natijalari

T/r	Guruh nomlari	Dastlabki natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	O'rta natija	Ikki bosqich o'rtasidagi farq	So'nggi natija	Umumiy farq
1	Tajriba guruhi	61	7	68	6	74	13
2	Nazorat guruhi	62	3	65	3	68	6
3	Umumiy	62	4	66	5	71	9

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy tili-3 fakulteti
talabalarining natijalari**

T/r	Guruh nomlari	Dastlabki natija	Ikki bosqich o‘rtasidagi farq	O‘rta natija	Ikki bosqich o‘rtasidagi farq	So‘nggi natija	Umumiy farq
1	Tajriba guruhi	72	6	78	5	83	11
2	Nazorat guruhi	75	1	76	1	77	2
3	Umumiy	74	3	77	3	80	6

OTMlardagi masofaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish uchun o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili xi kvadrat (χ^2) alomati asosida amalga oshirildi hamda uning umumiy o‘shish tendensiyasi 11,9 foizni tashkil etdi. Bu sof masofaviy ta’limning joriy etilganligi, undagi o‘qituvchilar sinfining MT da CEFR darajasidagi bilimlarni ilk bor berishganligi, platformaning ilk bora ishga tushirilganligi va boshqa obyektiv sabablar hisobga olinsa, yaxshi ko‘rsatkich ekanligi ayni haqiqatdir. 3 oy oliygoh doirasida o‘z tahsilini davom ettirgan nazorat guruhidagi talabalardagi umumiy o‘shish 4% tashkil etib, bu tajriba guruhidagi natijalarga nisbatan 8 % kam demakdir.

Tajriba va sinov ishlarining statistik tahlili. OTMlardagi masofaviy ta’limda ta’lim sifatini oshirish uchun o‘tkazilgan tajriba sinov ishlarining statistik tahlili xi kvadrat (χ^2) alomati asosida amalga oshirildi.

Bunda tajriba va nazorat guruhi talabarlari to‘tta kategoriyaga ajratildi:

- $i=1$ kategoriya – “5” baho olgan talabalar;
- $i=2$ kategoriya – “4” baho olgan talabalar;
- $i=3$ kategoriya – “3 baho olgan talabalar;
- $i=4$ kategoriya - “2” baho olgan talabalar.

Kategoriyalar bo‘yicha quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

- O_{1i} – tajriba guruhidagi i baho olgan talabaning chastotasi;
- O_{2i} – nazorat guruhidagi i baho olgan talabaning chastotasi;
- P_{1i} – tajriba guruhidan tasodifiy olingan talabaning i baho olish ehtimoli;
- P_{2i} – nazorat guruhidan tasodifiy olingan talabaning i baho olish ehtimoli.

Bunda ehtimolliklarni qiymatini bilish shart emas, amalda ularni o‘rniga baholari – nisbiy chastotalar olinadi.

P_{1i} va P_{2i} lar orqali quyidagi gipotezalarni ifodalash mumkin:

$$H_0: P_{1i} = P_{2i} \quad i=1,2,3,4;$$

$$H_1: P_{1i} \neq P_{2i} \quad \text{hech bo‘lmaganda birorta } i=1,2,3,4 \text{ uchun.}$$

Agar tajriba guruhida n_1 nafar, nazorat guruhida n_2 nafar o‘quvchi qatnashgan bo‘lsa, u holda α qiymatdorlik darajasida gipotezalarni tekshirish uchun alomati sifatida quyidagi tasodifiy miqdor olinadi:

$$T = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^4 \frac{(n_1 o_{2i} - n_2 o_{1i})^2}{o_{1i} + o_{2i}}$$

T tasodifiy miqdor taxminan ozodlik darajasi $\nu=3$ bo‘lgan χ^2 taqsimot

funksiyaga ega.

Bunda H_0 gipotezani tekshirish qoidasi quyidagicha:

– ma'lumotlar asosida T statistikaning kuzatilgan qiymati aniqlanadi, uni T_{kuzat} kabi belgilanadi;

– $\alpha=0,05$ va $\nu=3$ ozodlik darajali χ^2 taqsimot jadvalidan $T_{kr}=7,8$ ni topamiz.

– agar $T_{kr}=7,8 < T_{kuzat}$ bo'lsa, H_1 gipoteza qabul qilinadi, aks holda $\alpha=0,05$ qiymatdorlik darajasida H_0 rad qilinadi.

Agar tajribalar natijalarga asosan H_1 gipoteza to'g'ri bo'lib chiqsa, u holda maxsus metodika va platforma asosida o'tkazilgan tajriba ishlari natija berganligini anglatadi.

Endi yuqoridagi qoida asosida o'tkazilgan tajriba va sinov natijalarini baholaymiz. Belgilangan 3 ta obyekt bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan tajriba va sinov natijalari jadvallari asosida quyidagi jadvalni tuzamiz:

Bunda tajriba va nazorat guruhleri bo'yicha tajribadan avvalgi (TA) va tajribadan keyingi (TK) ma'lumotlarni jadvalga kiritamiz. So'ng TK ma'lumotlar asosida gipotezalarni tekshiramiz.

5-jadval

Tajriba guruhi talabalarining matematik tahlil natijalari

№	Tajriba va sinov obyektlari	Tajriba guruhi							
		i=1 ("5")		i=2 ("4")		i=3 ("3")		i=4 ("2")	
		TA 0_{11}	TK 0_{11}	TA 0_{12}	TK 0_{12}	TA 0_{13}	TK 0_{13}	TA 0_{14}	TK 0_{14}
Jami	TA: $n_1=208$ TK: $n_1=203$	23	66	67	75	97	50	21	12
O'rtacha baho	TA	3,44							
	TK	3,96							
O'sish ko'rsatkichi	TK	$\frac{3,57/3,96}{3,44} * 100\% - 100\% = 15,1\%$ - tajriba guruhini o'zida							

6-jadval

Nazorat guruhi talabalarining matematik tahlil natijalari

№	Tajriba va sinov obyektlari	Nazorat guruhi							
		i=1 ("5")		i=2 ("4")		i=3 ("3")		i=4 ("2")	
		TA 0_{21}	TK 0_{21}	TA 0_{22}	TK 0_{22}	TA 0_{23}	TK 0_{23}	TA 0_{24}	TK 0_{24}
Jami	TA: $n_1=193$ TK: $n_1=190$	20	21	80	75	76	79	17	15
O'rtacha baho	TA	3,53							
	TK	3,54							
O'sish ko'rsatkichi	TK	$\frac{3,72/3,54}{3,53} * 100\% - 100\% = 0,28\%$ -nazorat guruhini o'zida							

Endi biz uchun asosiy bo'lgan tajriba guruhini nazorat guruhiga nisbatan o'sish ko'rsatkichini hisoblaymiz. Buning uchun jadvaldagi TKga o'rtacha baholarni nisbatini foyizlardagi qiymatini aniqlaymiz:

$$\frac{3,96}{3,54} * 100\% - 100 = 11,9\%.$$

Endi bu ko‘rsatkich statistik to‘g‘ri ekanligini χ^2 alomati bilan asoslaymiz.

Gipotezalarni tekshirish qoidasiga asosan kriteriyning kuzatilgan qiymati bilan kritik qiymatlarini taqqoslaymiz. Jadval asosida hisoblash ishlarini bajaramiz.

$$T_{\text{kuzat}} = \frac{1}{n_1 n_2} \sum_{i=1}^4 \frac{(n_{1o_{2i}} - n_{2o_{1i}})^2}{o_{1i} + o_{2i}} = \frac{1}{190 * 203} \left(\frac{(190 * 21 - 203 * 66)^2}{21 + 66} + \frac{(190 * 75 - 203 * 75)^2}{75 + 75} + \frac{(190 * 79 - 203 * 50)^2}{79 + 50} + \frac{(190 * 15 - 203 * 12)^2}{15 + 12} \right) \approx 31,45$$

Yuqorida aniqlaganimizga asosan $T_{kr}=7,8$. Demak, $T_{\text{kuzat}}=31,45 > T_{kr}=7,8$ demak qoidaga asosan H_1 gipoteza qabul qilinadi.

Xulosa qilsak, masofaviy talimda ta‘lim sifatini oshirish uchun o‘tkazilgan tajriba natijalari yangi platforma va metodikalar samara berganligini ko‘rsatadi. Shu bilan tajriba guruhini nazorat guruhiga nisbatan o‘shish ko‘rsatkichi 11,9 % bo‘lganligi isbotlandi.

Ta‘kidlab o‘tish joizki, UzEDLning dastlabki tajriba sinov jarayonlari uchun tanlab olingan oliygohlar – SamDChTI, O‘zDJTU, JDPUlarda olib borilgan 3 oylik masofaviy ta‘lim natijalari quvonarli bo‘ldi. Sinov jarayonlari ikki guruhda – tajriba va nazorat guruhidagi natijalar uch oy kesimida umumiy tahlil qilindi. Tajribaning dastlabki oyida tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatgan natijalar orasida sezilarli farq yo‘q edi. Tajriba sinov bosqichlarining ikkinchi va uchinchi oyidagi natijalar UzEDL ta‘lim platformasida ingliz tili tahsilini olgan talabalarning natijasida sezilarli ko‘tarilishni qayd etdi. Bu esa UzEDLning O‘zbekistondagi kelgusi faoliyati xususida ijobiy prognozlar chiqarishga turtki bo‘ldi. Platformadagi tajriba jarayonlari CEFR tizimiga asoslangan imtihoni baholash tizimining “B2” darajasidagi materiallardan foydalanilgan tarzda tashkil etildi. Maqsad respondentlarning undan yuqoridagi til CEFR malaka darajasi “C1” olish imkoniyatini o‘rganishdan iborat edi. Har oydagi o‘shishlar matematik jihatdan analiz qilinganida UzEDL doirasida masofadan ingliz tilini o‘rganib, CEFR tizimiga asoslangan imtihonida yuqori natija ko‘rsatishi mumkin degan xulosaga kelishga asos bo‘ldi.

XULOSA

“Masofaviy ta‘limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi” mavzusi yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida ingliz tilini masofadan o‘qitishga ixtisoslashgan yangi milliy platforma – UzEDL (*Uzbekistan English distance learning*) ishlab chiqildi. Mazkur masofaviy platformani yaratish yuzasidan shu davrga qadar masofaviy ta‘lim (MT)da til o‘rgatish metodologiyasiga oid erishilgan ilmiy pedagogik va ilmiy texnologik yutuqlar umumiy tahlil qilinib, UzEDLning o‘zi ham O‘zbekiston sharoitida dastlabki tajriba-sinov bosqichlaridan

o‘tkazilishi bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosa va mulohozalarni ilgari surish imkonini berdi:

1. Dunyodagi globallashtirish, axborot-kommunikatsion va kompyuter texnologiyalari sohasidagi yutuqlar masofadan ta‘lim olish uchun katta qulayliklarni yaratmoqda. Covid-19 pandemiyasiga qadar bir maromda rivojlanib kelgan masofaviy ta‘lim ayni shu omil sabab yanada jadallashib ketdi. Innovatsion texnologiyalar yordamida virtual ta‘limda yuqori samaraga erishish asosiy masalaga aylandi. Bu esa MTni rivojlantirish uchun jahon ilm-fani bilan hamohang tarzda taraqqiy etish, ular bilan tajriba almashinuv dunyo aholisi uchun asosiy muomala tiliga aylangan ingliz tili singari xorijiy tillarni qulay, tez va samarali tarzda o‘zlashtirib, uni amaliyotda qo‘llash vazifasi kabi zaruratni keltirib chiqardi;

2. Masofaviy ta‘lim ilmiy texnika taraqqiyotining pedagogika sohasidagi ko‘rinishi bo‘lib, rivojlanayotgan va zamon bilan hamnafaslikda taraqqiy etishni maqsad qilgan davlat borki, MT bilan hisoblashishga, bu borada o‘z milliy-an‘anaviy ta‘lim tajribasini unga moslashga to‘g‘ri keladi. Bir so‘z bilan aytganda, ta‘limning masofaviy shakliga bugun bo‘lmasa, ertaga, albatta o‘tishimiz shart. Mazkur jihatni teran anglab, MT borasidagi tajribalarni jadallashtirish, ushbu sohaning samardorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy tahlilga olish, an‘anaviy ta‘limda erishilgan ilmiy yutuqlarimizni MTga joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqishimiz bugunning zarurati ekanligi ayon bo‘ldi;

3. MTni tashkil etayotgan ta‘lim muassasalari o‘zida an‘anaviy ta‘limning ko‘plab xususiyatlarini saqlab qolgan holda, uni telekommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirmoqda. Ya‘ni oldingi ma‘ruzalar endi texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga taqdim etilmoqda. Bu yerda ham oldingidek auditoriya bor, biroq uning ishtirokchilari vizual emas, balki virtual holda ta‘lim olishadi.

4. Bugungi kunda ta‘lim berishga ixtisoslashgan platformalarning soni 200 dan ortiq ekanligi ma‘lum. Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha katta tajribaga ega mamlakatlarda foydalaniladigan ta‘lim platformalarini tadqiq etib, turli ijtimoiy so‘rovlarni o‘rganib chiqib, platformalarni o‘rganish obyektiga jalb qildik. Ushbu platformalarning o‘z mohiyatiga quyidagi guruhlariga bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi: a) maxsus kurslarni o‘zida jamlagan masofaviy ta‘lim platformalar (MKO‘JMTP); b) muayyan ta‘lim muassasasi bazasidagi masofaviy ta‘lim platformalari (MTMBMTP); c) yordamchi masofaviy ta‘lim platformalar (YMTM). Ushbu bo‘linish, MT platformalariga qo‘yiladigan talablarning oydinlashtirish imkonini beradi.

5. Ma‘lumki, MT olish jarayonidagi tinglovchilar oldida auditoriya muhiti bo‘lmasligi, u shakllantirilgan hollarda ham, an‘anaviy ta‘limning barcha komponentlari – raqobatbardoshlik, faol muloqot, psixologik-pedagogik ta‘sir va boshqa shu kabi pedagogik ta‘sir vositalari to‘la his etilmasligi mumkin. Bu esa ta‘lim manbalari yaratuvchilari zimmasiga qator mas‘uliyatni yuklaydi. An‘anaviy ta‘limdagi darsliklarda aksariyat o‘rinlarda urg‘u ilmiy axborot berilishiga qaratiladi. Hozirgi kunda masofaviy va an‘anaviy ta‘lim jarayonida darsliklar masalasi unifikatsiya qilinmagan. Mazkur jihat masofadan ta‘lim oluvchilar uchun maxsus adabiyotlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatib berdi.

6. Ta'limning masofaviy shaklida kitoblar va kutubxona bilan ishlash ham katta qulaylikni yuzaga keltiradi. Bilamizki, katta kutubxona kitoblari barmoqdekkin xotira saqlagichga joy bo'lmoqda. Ma'lumotlarni izlash, kataloglashtirish oldingidek kitob javonlari oldida soatlab vaqt o'tkazishning oldini olmoqda. Masofaviy ta'limda tahsil olish ta'lim oluvchining nafaqat til va fanning boshqa tarmoqlaridagi bilimi oshishiga hissa qo'shishi barobarida, ularning zamonaviy axborot texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirmoqda.

7. UzEDL o'z kutubxonasida o'z virtual kurubxonasida elektron adabiyotlar bilan bir qatorda, video darslarni ham saqlay oladi. Til o'rganuvchi muayyan ijtimoiy sabablarga ko'ra MTda o'tkazib yuborgan darsini ushbu dars yuzasidan yozib olingan video faylni qayta ko'rish orqali yana o'zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur jihat, dars qoldirgan talabalardan tashqari, dars mobaynida ham tushunmay qolgan til o'rganuvchi uchun qo'l keladi. Video darslarning yana bir imkoniyati UzEDLda elektron videodarslar resursi shakllanadi. Shakllantirilayotgan videodarslar o'qituvchining ham darsga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi, yangi til o'rganuvchilarga esa qaysi til o'rgatuvchining kursini tanlash xususida to'xtamga kelishiga xizmat qiladi.

8. Ma'lumki, har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining masofaviy ta'lim tizimidagi *e-learning* va *m-learning* tizimiga ega bo'lib, aynan taqdim etilayotgan UzEDL platformasi O'zbekistonning dastlabki shunday platformalaridan biridir. Unga kirgan paytingiz sodda va foydalanish interfeysga duch kelasiz. Ko'p yillardan beri *online* platformalarning xavfsizlik borasidagi tajribalarini o'rganish orqali UzEDLning ham mazkur jihatidaga katta e'tibor qaratildi. Har bir foydalanuvchi ro'yxatdan o'tishda *e-pochtasi* yoki telefon raqami orqali tekshiriladi. Bir shaxsning qayta ro'yxatdan o'tishiga yo'l qo'yilmaydi (albatta, akkountni tahrirlash imkoniyati mavjud) xuddi shuningdek, bitta pochta manzili yoki telefon raqamidan ham bir marta foydalanish mumkin. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish orqali shaxsiy login va paroliga ega bo'ladi.

9. Platforma ichida har bir til ko'nikmasi uchun alohida bo'limlar ajratilganligi va ularning har biri yana CEFR tizimiga asoslangan imtihonining "A1" darajasidan "C1" darajasiga qadar materiallar mos murakkablik bilan joylashtirib chiqilganligi undan foydalanish uchun qulaylik yaratgan. Shuningdek, UzEDL doirasida o'qituvchi va o'quvchilarning reytinglarining yuritilishi har ikki tomon – til o'rgatuvchi va til o'rganuvchining birdek mas'uliyatini oshiradi va o'z ustida ishlashga keng yo'l ochib beradi. Platformaning "Test" bo'limi platformaga dastlab tashrif buyurgan til o'rganuvchi uchun yo'l ko'rsatkich vazifasini ham o'tash barobarida, bir til darajasidan boshqa til darajasiga o'tkazib berish masalasini ham hal etadi. Bu virtual ta'limda baholash tizimining yaratilganligini ko'rsatib berdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, UzEDL platformasining O'zbekistonning uch viloyatidagi oliygohlar – Samarqand davlat chet tillar instituti (SamDChTI), O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti (O'zDJTU), Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU)da olib borilgan tajriba va sinov guruhlarida ishtirok etgan 401 nafar talabalarning natijalari ilmiy tahlil qilinganida UzEDL milliy platformasi ta'limning masofaviy shaklida samarali ekanligini isbotladi. Olingan natijalar va

zamonaviy innovatsion yutuqlarning ta'limda joriy qilinishi, O'zbekistonning bu borada to'plagan tajribasi, MT bilan qisman bo'lsa-da, tanish bo'lgan sinfning mavjudligi UzEDL singari MT platformalarning milliy ta'lim tizimimizga joriy qilish fursati kelganligini anglatadi. UzEDLning bugungi ta'lim tizimida til o'rganuvchilarni CEFR tizimiga asoslangan imtihoni baholash me'zonlari orqali o'qitishda joriy qilinishi muayyan fan sohasini o'zlashtirishga ixtisoslashtirilgan MT platformlari uchun dastlabki qadam bo'ladi desak bo'ladi.

“Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi” mavzusi yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. UzEDLni O'zbekiston miqyosidagi til o'rgatuvchi oliygohlarga joriy etish orqali umumiy-milliy tajriba, mamlakat miqyosidagi muayyan sohaga ixtisoslashgan elektron kutubxona, keng monitoring va eng muhimi, faol metodik tajriba almashish ishini osonlashtirish mumkin.

2. O'zbekiston sharoitida UzEDLning moslashuvchan jihatlarini o'rganib, mavjud yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish maqsadida AT mutaxassisleri va faol pedagoglar, talabalar ishtirokida davra suhbatlari, seminarlar va konferensiyalar tashkil etish zarur.

3. “UzEDL hamma uchun” shiorini qo'llagan holda, hozirda CEFR tizimiga ingliz tili ilmini berishga ixtisoslashgan mazkur MT platformani bosqichma-bosqich ta'limning quyi bo'g'inlariga joriy qilish mumkin. Buning uchun esa, maktab bosqichida faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog va AT mutxassislariga muayyan imtiyoz yoki grantlar berib, mazkur masalada ularning ishtirokini ta'minlash MTning ommalashishini, ingliz tilini esa masofadan o'qitish qamrovini, ijtimoiy va yosh chegarasini oshiradi.

4. Turizm va sayyohlikni rivojlantirish, boy tariximiz bilan butun bashariyatni tanishtirish bugun davlat siyosati darajasiga chiqdi. Ko'plab xorijliklar boy tariximiz, mentalitetimiz va urf-odatlarimizga havas va katta qiziqish bilan qarashmoqda. Ularning orasida, hattoki, o'zbek tilini bimalol gaplashish darajasida o'rganib olganlar ham yo'q emas. Ayni shu jihatdan kelib chiqib, kelgusida UzEDL vositasida ingliz tilida so'zlashuvchi fuqarolarga o'zbek tilini o'rgatish mumkin bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

НУРМУРАТОВ АНВАР ЯХШИБАЕВИЧ

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ПРИ
ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Ped3606.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Тухтасинов Илхомжон Мадаминович**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Кушиева Нодира Хабибжоновна**
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Машарипова Феруза Жуманазаровна
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Гулистонский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекском государственном университете мировых языков (зарегистрирована за номером ____). Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21А. Тел: (99871) 230-12-91; Faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2024 года

Протокол реестра рассылки за № ____ от « ____ » _____ 2024 года

Л.Т.Ахмедова
Председателя Научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор педагогических наук,
профессор

А.Б.Рахмонов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
доктор педагогических наук (DSc),
доцент

К.Ш.Мурадкасимова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Различные изменения и события, происходящие в мире, требуют развития различных форм образования наряду с их специфическими технологическими и методическими структурными механизмами в области преподавания иностранных языков. Кроме того, эпидемиологические катастрофы, политические кризисы и конфликты, с которыми сталкиваются люди мира, требуют от современной науки проведения исследований по совершенствованию нетрадиционных, гибридных форм образования с использованием достижений в области информационных, коммуникационных и компьютерных технологий. Сегодняшний спрос ставит на повестку дня вопрос удаленной работы и дистанционного образования с учетом всех культурных и языковых аспектов, изучающего язык без переезда в ту страну, язык которой изучается. Это делает актуальной задачу развития, изучения и использования на практике английского языка, ставшего основным языком общения населения планеты, что является удобным, быстрым и эффективным способом.

Разрабатывается и продолжает совершенствоваться ряд методов и стратегий преподавания и изучения английского языка, на котором свободно общаются более полутора миллиардов человек по всему миру и который преподается как основной иностранный язык примерно в ста странах. Университет KNOU (Корейский национальный открытый университет) в Южной Корее, Мемориальный университет Эйлера-Франкера (The Euler-Franeker Memorial University) в Нидерландах и университет NETKENT (Средиземноморский исследовательский и научный университет) в Турции предлагают дистанционное обучение и придают большое значение преподаванию английского языка в дистанционном формате.

Создана благоприятная среда для развития науки, которая является основным фактором и источником повышения интеллектуального потенциала нового Узбекистана, который вот-вот отметит тридцать третью годовщину независимости, закладывает фундамент эпохи Возрождения, и стремительно движется к высоким целям. Как сказал Президент нашей страны: «Если мы изменим образование, образование изменит людей. Когда меняется человек, меняется всё наше общество. Поэтому мы уделяем особое внимание совершенствованию непрерывного образования, воспитанию наших детей всесторонне развитыми людьми, радикальному улучшению подготовки высококвалифицированных педагогов»¹. Развитие системы образования напрямую связано с развитием науки. Одной из главных задач нашей государственной политики является развитие нашей молодежи,

¹ Ш. Мирзиёев. «Независимость нашей страны – это для нас источник силы и вдохновения, основа развития и процветания» <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-o'zbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-30-yillik-bayramiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi> (Дата подачи заявления: 14.05.2023)

которая является основой и движущей силой развития нашей страны, зрелой во всех отношениях, владеющей иностранными языками, способной свободно обмениваться опытом с зарубежными коллегами. В связи с этим разработка теоретических и научных основ преподавания английского языка в условиях дистанционного образования наряду с традиционными методами является актуальной задачей.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких, как Закон «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, Постановлений Президента Республики Узбекистан №ПП-2009 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», №ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», №ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», №ПП-279 от 15 июня 2022 года «Об организации приема на учебу в государственные высшие образовательные учреждения», Указов Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и другими нормативно-правовыми актами в этой области.

